



# URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

UO'K: 615.24: 616.61-002.3-036.120- 085.24.

## ANTIBAKTERIAL VOSITALARNING SURUNKALI PIYELONEFRITNI DAVOLASHDAGI FARMAKOEKONOMIK TAHLILI VA ANTIMIKROB CHIDAMLILIKNI NAZORAT QILISH MASALALARI (XORAZM VILOYATI AYRIM STATSIONARLARI MISOLIDA)



**Axmedova Nazakat Marimbayevna**

Urganch davlat tibbiyot instituti

Farmakologiya va klink farmakologiya kafedrası assistenti,

Urganch shahar, O'zbekiston

[nazakat.akhmedova@list.ru](mailto:nazakat.akhmedova@list.ru)

<https://orcid.org/0009-0008-9700-3588>



**Ismoilov Soloy Ruzmamatovich.**

Urganch davlat tibbiyot instituti

Farmakologiya va klink farmakologiya kafedrası professori,

Urganch shahar, O'zbekiston

[isoloy@mail.ru](mailto:isoloy@mail.ru)

<https://orcid.org/0009-0002-9566-4207>

**Annotatsiya.** 2019 yil davomida Xorazm viloyatining uchta DPMda surunkali piyelonefritni davolashda qo'llanilgan antibakterial vositalarning farmakoeconomik tahlili o'rganilganida, ularning katta qismi bemorlarning shaxsiy mablag'lari hisobidan xarid qilinganligi aniqlandi. Bu narsa tadqiqot olib borilayotgan shifoxonalarda dori ta'minotining yetishmovchiliklarini ko'rsatibgina qolmasdan, antimikrob chidamlilikni nazorat qilish va infeksiyalarni samarali davolashda tizimli choralarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi. O'tkazilgan ABC/VEN tahlil natijalari esa surunkali piyelonefritni davolashda ishlatiladigan antibakterial vositalarni tanlash va ulardan foydalanish jarayonini optimallashtirish zarurligini ko'rsatgan holda, ular resurslarni rasional taqsimlashda, antibiotiklarga chidamlilikni kamaytirishda va yuqumli kasalliklarni davolashda farmakoeconomik samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlari:** antibakterial vositalar, antimikrob chidamlilik, surunkali piyelonefrit, farmakoeconomika.

## ФАРМАКОЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРИМЕНЕНИЯ АНТИБАКТЕРИАЛЬНЫХ СРЕДСТВ ПРИ ЛЕЧЕНИИ ХРОНИЧЕСКОГО ПИЕЛОНЕФРИТА И ПРОБЛЕМЫ КОНТРОЛЯ АНТИМИКРОБНОЙ РЕЗИСТЕНТНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ ОТДЕЛЬНЫХ СТАЦИОНАРОВ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ)

**Ахмедова Н.М., Исmoilов С.Р.**



# URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Ургенчский государственный медицинский институт, г. Ургенч, Узбекистан

**Аннотация.** В рамках проведённого фармакоэкономического анализа применения антибактериальных средств при лечении хронического пиелонефрита в трёх лечебно-профилактических учреждениях Хорезмской области в течение 2019 года установлено, что значительная часть лекарственных препаратов приобреталась пациентами за счёт собственных средств. Полученные данные свидетельствуют не только о дефиците лекарственного обеспечения в исследуемых стационарах, но и подчёркивают необходимость внедрения системных мер по контролю антимикробной резистентности и повышению эффективности терапии инфекционных заболеваний. Результаты проведённого ABC/VEN анализа демонстрируют актуальность оптимизации выбора и рационального использования антибактериальных средств при лечении хронического пиелонефрита, что способствует более эффективному распределению ресурсов, снижению уровня устойчивости микроорганизмов к антибиотикам и повышению фармакоэкономической результативности лечебного процесса.

**Ключевые слова:** антибактериальные средства; антимикробная резистентность; хронический пиелонефрит; фармакоэкономика.

## PHARMACOECONOMIC ANALYSIS OF THE USE OF ANTIBACTERIAL AGENTS IN THE TREATMENT OF CHRONIC PYELONEPHRITIS AND ISSUES OF ANTIMICROBIAL RESISTANCE CONTROL (ON THE EXAMPLE OF SELECTED HOSPITALS OF KHOREZM REGION)

Akhmedova N.M., Ismoilov S.R.

Urgench State Medical Institute, Urgench, Uzbekistan

**Abstract.** A pharmacoeconomic analysis of antibacterial agents used in the treatment of chronic pyelonephritis was conducted in three healthcare institutions of the Khorezm region during 2019. The study revealed that a considerable proportion of medications were purchased directly by patients, reflecting deficiencies in pharmaceutical supply within the investigated hospitals. These findings underscore the urgent need for systemic interventions aimed at strengthening antimicrobial resistance control and enhancing the effectiveness of infection management. Results of the ABC/VEN analysis highlight the importance of optimizing the selection and rational utilization of antibacterial agents in chronic pyelonephritis therapy. Such optimization contributes to more efficient resource allocation, reduction of microbial resistance, and improvement of the pharmacoeconomic outcomes of infectious disease treatment.

**Keywords:** antibacterial agents; antimicrobial resistance; chronic pyelonephritis; pharmacoeconomics.

Surunkali piyelonefrit – bu buyrak to‘qimalarida uzoq davom etuvchi yallig‘lanish jarayoni bilan kechadigan infeksiyon kasallik bo‘lib, uning terapiyasi ko‘p hollarda uzoq muddatli dori vositalari qo‘llanilishini talab qiladi. Oxirgi yillarda klinik amaliyotda farmakoeconomik tahlilga



# URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

katta ahamiyat berila boshlandi. Bu usul orqali davolash samaradorligini saqlagan holda xarajatlarni optimallashtirish imkoniyati yaratiladi.<sup>[6,7]</sup>

Turli tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra, mazkur kasallikni davolashda asosiy o'rinni antibakterial preparatlar (ftorxinolonlar, syefalosporinlar, nitrofuranlar), uroseptiklar, shuningdek mikrosirkulyasiyani yaxshilaydigan va immunitetni mustahkamlaydigan vositalar egallaydi. Antibiotik tanlashda mikrobiologik sezuvchanlik, dori narxi, qabul qilish qulayligi va xavfsizlik profilini hisobga olish zarurligi adabiyotlarda alohida ta'kidlanadi.<sup>[1,2,3,11]</sup>

Farmakoeconomik tahlil bevosita tibbiy xarajatlar (dorilar, tashxis, gospitalizatsiya) bilan birga bilvosita yo'qotishlarni (mehnatga layoqatni yo'qotish, kasallik davomiyligi) ham qamrab oladi. Bioekvivalentligi klinik jihatdan isbotlangan generik preparatlardan foydalanish orqali davolash xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirish mumkinligi ko'rsatilgan.<sup>[1,4,5]</sup>

Shuningdek, ABC va VEN tahlil usullari dori vositalarini xarajat darajasi va klinik ahamiyatiga ko'ra tasniflash imkonini berishi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Bu usullar statsionar va dorixona muassasalarida dori zahiralari samarali boshqarishda qo'llanilishi mumkin.<sup>[8,9,11]</sup>

Xulosa qilib aytganda, farmakoeconomik yondashuv surunkali piyelonefritni davolashda tibbiy yordam sifatini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va bemorlar uchun optimal terapiyani ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.<sup>[1,9,10]</sup>

**Material va tadqiqot usullari.** Mazkur ishda farmakoeconomik tahlil sifatida ABC/VEN tahlil usullari qo'llanilgan holda Xorazm viloyati "Dori-darmon" AJ tomonidan 2019 yil davomida viloyatdagi barcha davlat byudjeti hisobidan dori-darmon bilan ta'minlanadigan davolash-profilaktika muassasalari uchun davlat byudjeti mablag'lari hisobiga xarid qilib olingan dori preparatlarining ayrim xususiyatlari hamda VKTTM, Yangibozor va Xonqa Tuman tibbiyot birlashmalarida surunkali piyelonefrit kasalligi bilan xastalangan 289 nafar bemorda ishlatilgan dori vositalarining qo'llanilishi va iqtisodiy samaradorligi o'rganildi.

**Natijalar va tahlili.** Viloyat "Dori-darmon" HJ tomonidan 2019 yil davomida viloyatdagi barcha davlat byudjeti hisobidan dori-darmon bilan ta'minlanadigan davolash-profilaktika muassasalari uchun davlat byudjeti mablag'lari hisobiga jami 279 057 521,5 (ikki yuz yetmish to'qqiz million ellik yetti ming besh yuz yigirma bir so'm 50 tiyin) so'mlik turli nomdagi dori-darmonlar xarid qilingan bo'lib, shulardan A guruhga mansub dori-darmonlar 10 turdagi nomda 232 407 059,22 (ikki yuz o'ttiz ikki million to'rt yuz yetti ming ellik to'qqiz so'm 22 tiyin) so'mni va bu jami xarajatning 83,0 foizini tashkil etdi. V guruhga mansub dori-darmonlar 14 turdagi nomda 35 431 637,2 (o'ttiz besh million to'rt yuz o'ttiz bir ming olti yuz o'ttiz yetti so'm 20 tiyin) so'mni va bu jami xarajatning 13,0 foizini, C guruhga mansub dori-darmonlar esa 26 turdagi nomda 11 218 825,1 (o'n bir million ikki yuz o'n sakkiz ming sakkiz yuz yigirma besh so'm 10 tiyin) so'mni va bu jami xarajatning 4,0 foizini tashkil etdi.

O'rganilgan yil davomida Viloyat "Dori-darmon" HJ tomonidan VKTTM ga davlat byudjeti mablag'lari hisobidan jami 22 839 169,1 (yigirma ikki million sakkiz yuz o'ttiz to'qqiz ming bir yuz oltmish to'qqiz so'm 10 tiyin) so'mlik dori vositalari ajratilgan bo'lib, ABC tahlil natijasida 17 063 585 (o'n yetti million oltmish uch ming besh yuz sakson besh) so'm yoki 78 foizi A guruhga, 4 414 270,2 (to'rt million to'rt yuz o'n to'rt ming ikki yuz yetmish so'm 20 tiyin) so'm yoki 18 foiz B guruhga hamda 1 361 313,9 (bir million uch yuz oltmish bir ming uch yuz o'n uch so'm 90 tiyin) so'm yoki 4 foiz C guruhga to'g'ri kelishi ma'lum bo'ldi. Mazkur DPM da SPni davolash





# URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

maqsadida jami 46 852 357,3 (qirq olti million sakkiz yuz ellik ikki ming uch yuz ellik yetti so'm 30 tiyin) so'mlik dori vositalari ishlatilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, ushbu mablag'ning 6 126 406,5 (olti million bir yuz yigirma olti ming to'rt yuz olti so'm 50 tiyin) so'mi yoki 13 foizi "Dori-darmon" HJ tomonidan, qolgan 40 725 950,8 (qirq million yetti yuz yigirma besh ming to'qqiz yuz ellik so'm 80 tiyin) so'm yoki 87 foizi esa bemorlarning o'z mablag'lari hisobidan sotib olingan dori vositalariga to'g'ri kelganligi aniqlandi. Bu holat SPni davolashda bemorlar tomonidan qo'shimcha xarajatlar ulushi yuqori ekanini ko'rsatadi va muassasadagi dori ta'minotini yanada optimallashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Mazkur muassasada SPni davolash uchun ishlatilgan 46 852 357,3 (qirq olti million sakkiz yuz ellik ikki ming uch yuz ellik yetti so'm 30 tiyin) so'mlik dori vositalarining ABC tahlil natijasida A guruhga 36 392 950 (o'ttiz olti million uch yuz to'qson ikki ming to'qqiz yuz ellik) so'mi yoki 78 foizi, B guruhga 8 892 850 (sakkiz million sakkiz yuz to'qson ikki ming sakkiz yuz ellik) so'm yoki 18 foiz, C guruhga esa 1 566 557,3 (bir million besh yuz oltmish olti ming besh yuz ellik yetti ming so'm 30 tiyin) so'm yoki 4 foiz to'g'ri kelganligi ma'lum bo'ldi. VKTTM da o'rganilgan 32 nomdagi dori vositasining VEN tahlili 8-jadvalda keltirilgan.

V (Vital) turkumidagi dori vositalarining barchasi ABP bo'lib, ularning ulushi juda yuqori – 69foiz va O'zbekiston Respublika Sog'liqni saqlash vazirining 2024 yil 29 martdagi 107-son buyrug'ining 1-ilovasi "Surunkali piyelonefrit" nozologiyasi bo'yicha milliy klinik bayonnomasiga mos keladi. E (Essential) turkumidagi vositalarga simptomatik davo vositalari, infuzion va metabolik vositalar kirgan bo'lib, ular davolash jarayonini quvvatlovchi qo'shimcha preparatlar va ular umumiy xarajatning 23foizini tashkil etdi. N (Non-essential) turkumidagi vositalarga vitaminlar, mikroyelementlar va yordamchi preparatlar kirgan bo'lib, ularning ulushi 8 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, tadqiqotlar davomida ABC va VEN tahlil natijalarini bir-birlariga o'zaro taqqoslash orqali o'tkazilgan ABC/VEN tahlili natijalari dori vositalarining iqtisodiy yuklamasi va klinik ahamiyati o'rtasidagi muvozanatni aniq baholash imkonini berdi. A guruhdagi vositalarning 78 foizi Vital va 22 foizi Essential turkumlariga mansubligi ularning strategik ahamiyatining yuqoriligini tasdiqlaydi. Bu vositalar umumiy xarajatning asosiy qismini tashkil etganligi sababli, ularning ta'minot zanjirida qat'iy moliyaviy nazorat, xarid qilish uchun bosqichma-bosqich talabnoma berish, yuqori ustuvorlikdagi xarid, omborlash va logistika strategiyalari talab etiladi.

B guruhdagi dori vositalarning yarmi Non-essential turkumiga kirishi mazkur guruh assortimentini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Bu guruhdagi V va E turkumlarini ajratib, ularni maqsadli moliyalashtirish, qolgan N turkumidagi vositalarni qisqartirish yoki arzon alternativalar bilan almashtirish SCM samaradorligini oshiradi. C guruhdagi vositalar past xarajatli bo'lsa-da, ularning 65 foizi klinik jihatdan muhim (V+E) ekanligi ularning ham strategik ahamiyatga ega bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu bois, C guruhdagi vositalarni optimallashtirishda faqat iqtisodiy mezon emas, balki klinik zaruriyat ham inobatga olinishi lozim (9-jadvalga qarang).

O'rganilgan yil davomida viloyat "Dori-darmon" HJ tomonidan Yangibozor TTB ga davlat byudjeti mablag'lari hisobidan jami 21 242 858,73 (yigirma bir million ikki yuz qirq ikki ming sakkiz yuz ellik sakkiz so'm 73 tiyin) so'mlik dori vositalari ajratilgan bo'lib, ABC tahlil natijasida 14 261 840,0 (o'n to'rt million ikki yuz oltmish bir ming sakkiz yuz qirq) so'm yoki 68



# URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

foizi A guruhga, 5 675 43,96 (besh million olti yuz yetmish besh ming besh yuz qirq uch so'm 20 tiyin) so'm yoki 27 foizi B guruhga hamda 1678074,83 (bir million olti yuz yetmish sakkiz ming yetmish to'rt so'm 83 tiyin) so'm yoki 5 foizi C guruhga to'g'ri kelishi ma'lum bo'ldi. Mazkur shifoxonada SPni davolash maqsadida jami 13 984 090,0 (o'n uch million to'qqiz yuz sakson to'rt ming to'qson) so'mlik dori vositalari ishlatilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, ushbu mablag'ning 638 089,0 (olti yuz o'ttiz sakkiz ming sakson to'qqiz) so'mi yoki 5 foizi "Dori-darmon" HJ tomonidan, qolgan 13 345 911,0 (o'n uch million uch yuz qirq besh ming to'qqiz yuz o'n bir ming so'm) yoki 95 foizi esa bemorlarning o'z mablag'lari hisobidan sotib olingan dori vositalariga to'g'ri kelganligi aniqlandi. SPni davolash uchun ishlatilgan 13 984 090,0 (o'n uch million to'qqiz yuz sakson to'rt ming to'qson) so'mlik dori vositalarining ABC tahlil natijasida A guruhga 11 432 500,0 (o'n bir million to'rt yuz o'ttiz ikki ming besh yuz) so'mi yoki 82 foizi, B guruhga 1 841 240,0 (bir million sakkiz yuz qirq bir ming ikki yuz qirq) so'm yoki 14 foiz, C guruhga esa 710 350,0 (yetti yuz o'n ming uch yuz ellik) so'm yoki 5 foiz to'g'ri kelganligi ma'lum bo'ldi. Yangizor TTBda o'rganilgan 38 nomdagi dori vositasining VEN tahlili 10 -jadvalda keltirilgan.

V (Vital) turkumidagi dori vositalarining barchasi ABP bo'lib, ularning ulushi juda yuqori – 72 foizga teng. E (Essential) turkumidagi vositalarga simptomatik davo vositalari, infuzion va metabolik vositalar kirgan bo'lib, ular davolash jarayonini quvvatlovchi qo'shimcha preparatlar va ular umumiy xarajatning 22 foizini tashkil etdi. N (Non-essential) turkumidagi vositalarga vitaminlar, mikroyelementlar va yordamchi preparatlar kirgan bo'lib, ularning ulushi 6 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, tadqiqotlar davomida ABC va VEN tahlil natijalarini bir-birlariga o'zaro taqqoslash orqali o'tkazilgan va farmasevtik resurslarning samaradorligi va optimal taqsimoti baholandi: A guruh: mablag'ning asosiy qismi (50 foiz) E toifadagi dorilarga yo'naltirilgan. Bu farmasevtik siyosatning to'g'ri yo'nalishini ko'rsatadi. N toifadagi dorilar ulushi (10 foiz) past bo'lib, samarali zaxira siyosati mavjudligini anglatadi. B guruh: hayotiy muhim dorilar ulushi 44,5 foiz bo'lib, optimal ko'rsatkich hisoblanadi. Biroq N toifadagi dorilar ulushi (22 foiz) yuqori, bu ortiqcha sarf va zaxira muammolarini keltirishi mumkin. C guruh: E toifadagi dorilar ulushi 26 foiz bo'lib, past ko'rsatkich hisoblanadi. N toifadagi dorilar ulushi 37 foiz ga yetgani farmasevtik resurslar samaradorligini pasaytiradi.

Yangibozor TTBdagi ABC/VEN tahlil natijalari farmasevtik resurslarning samarali taqsimlanishida ijobiy jihatlar bilan birga kamchiliklarni ham ko'rsatdi va tuman darajasidagi farmasevtik ta'minotni qayta ko'rib chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. VKTTM bilan qiyosiy tahlil nomuhim dorilar ulushini kamaytirish orqali farmasevtik byudjetni tejash zarurligini asoslaydi.

O'rganilgan yil davomida Viloyat "Dori-darmon" HJ tomonidan Xonqa TTB ga davlat byudjeti mablag'lari hisobidan jami 37 266 344,32 (o'ttiz yetti million ikki yuz oltmish olti ming uch yuz qirq to'rt so'm 32 tiyin) so'mlik dori vositalari ajratilgan bo'lib, ABC tahlil natijasida 32 146 788,06 (o'ttiz ikki million bir yuz qirq olti ming yetti yuz sakson sakkiz so'm 6 tiyin) so'm yoki 87 foizi A guruhga, 3 509 723,01 (uch million besh yuz to'qqiz ming yetti yuz yigirma uch so'm 1 tiyin) so'm yoki 10 foizi B guruhga, hamda 1 609 833,25 (Bir million olti yuz to'qqiz ming sakkiz yuz o'ttiz uch ming so'm 25 tiyin) so'm yoki 3 foizi C guruhga to'g'ri kelishi ma'lum bo'ldi. Ushbu kasalxonada SPni davolash maqsadida jami 11 756 249,65 (o'n bir million yetti yuz ellik olti





# URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

ming ikki yuz qirq to'qqiz so'm 65 tiyin) so'mlik dori vositalari ishlatilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, ushbu mablag'ning 1 414 029,65 (bir million to'rt yuz o'n to'rt ming yigirma to'qqiz so'm 65 tiyin) so'mi yoki 12 foizi "Dori-darmon" HJ tomonidan, qolgan 10 342 220,0 (o'n million uch yuz qirq ikki ming ikki yuz yigirma so'm) yoki 88 foizi esa bemorlarning o'z mablag'lari hisobidan sotib olingan dori vositalariga to'g'ri kelganligi aniqlandi.

Mazkur muassasada SPni davolash uchun ishlatilgan 11 756 249,65 (o'n bir million yetti yuz ellik olti ming ikki yuz qirq to'qqiz so'm 65 tiyin) so'mlik dori vositalarining ABC tahlil natijasida A guruhga 9 227 400,0 (to'qqiz million ikki yuz yigirma yetti ming to'rt yuz) so'mi yoki 78,5 foizi, B guruhga 2 067 725,0 (ikki million oltmish yetti ming yetti yuz yigirma besh) so'm yoki 17,5 foizi, C guruhga esa 461 124,65 (to'rt yuz oltmish bir ming bir yuz yigirma to'rt so'm 65 tiyin) so'm yoki 4 foizi to'g'ri kelganligi ma'lum bo'ldi. O'rganilgan 30 nomdagi dori vositasining VEN tahlili 12-jadvalda keltirilgan.

V (Vital) turkumidagi dori vositalarining barchasi antibakterial preparatlar bo'lib, ularning ulushi juda yuqori – 81 foiz va E (Essential) turkumidagi vositalarga simptomatik davo vositalari, infuzion va metabolik vositalar kirgan bo'lib, ular davolash jarayonini quvvatlovchi qo'shimcha preparatlar va ular umumiy xarajatning 10 foizini tashkil etdi. N (Non-essential) turkumidagi vositalarga vitaminlar, mikroelementlar va yordamchi preparatlar kirgan bo'lib, ularning ulushi 9 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, mazkur muassasada tadqiqotlar davomida ABC va VEN tahlil natijalarini birlariga o'zaro taqqoslash orqali o'tkazilgan ABC/VEN tahlili natijalari dori vositalarining iqtisodiy yuklamasi va klinik ahamiyati o'rtasidagi muvozanatni aniq baholash imkonini berdi. A guruh: dori vositalarining 80 foizi Vital turkumiga to'g'ri kelishi ularning hayotiy muhim va strategik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, 20 foiz N turkumi xarajatlarning bir qismini klinik jihatdan uncha muhim bo'lmagan vositalarga sarflanayotganini anglatadi. Bu holat A guruhdagi assortimentini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. B guruh: dori vositalarining 50 foizi Vital, 12,5 foizi Essential, va 37,5 foizi Non-essential turkumlariga mansubligi ularning yarmi klinik jihatdan muhim, qolgan qismi esa uncha zarur bo'lmagan vositalardan iboratligini ko'rsatadi. Bu guruhda N turkumini qisqartirish va V/E turkumlarini maqsadli moliyalashtirish SCM samaradorligini oshiradi. C guruh: Past xarajatli bo'lsa-da, dori vositalarining 65 foizi (V+E) klinik jihatdan muhim turkumlarga to'g'ri keladi. Bu holat ularning strategik ahamiyatga ega bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu bois, C guruhda optimallashtirishda faqat iqtisodiy mezon emas, balki klinik zaruriyat ham inobatga olinishi lozim.

Umuman, tahlil natijalari SCM tamoyillari asosida dori vositalari assortimentini optimallashtirish va byudjet mablag'laridan samarali foydalanish uchun muhim asos yaratadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, uchta DPMda: A guruhda klinik jihatdan muhim dorilar (V) ulushi 69 foizni tashkil etib, o'rta ahamiyatli (E) dorilar 21 foiz, past ahamiyatli (N) dorilar esa atigi 10 foiz bo'lgan. Bu ko'rsatkich O'zbekiston Respublika Sog'liqni saqlash vazirining 2024 yil 29 martdagi 107-son buyrug'ining 1-ilovasi "Surunkali piyelonefrit" nozologiyasi bo'yicha milliy klinik bayonnomasiga mos keladi va samarali yondashuvni aks ettiradi. B guruhda muhim dorilar ulushi 42,5 foizgacha kamaygan, past ahamiyatli dorilar esa 36,5 foizgacha oshgan. C guruhda esa muhim dorilar ulushi eng past — 23 foiz bo'lib, o'rta ahamiyatli dorilar 42 foiz, past ahamiyatli dorilar 36 foizni tashkil etgan. (1-jadvalga qarang) Ushbu guruh preparatlarini optimallashtirish,



# URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

ya'ni nisbatan arzon alternativlarni tanlash yoki ularning assortimentini qisqartirish orqali byudjet mablag'larining tejallishiga erishish mumkin.

V (Vital) turkumidagi dori vositalarining barchasi ABP bo'lib, ularning ulushi juda yuqori – 72 foiz va. E (Essential) turkumidagi vositalarga simptomatik davo vositalari, infuzion va metabolik vositalar kirgan bo'lib, ular davolash jarayonini quvvatlovchi qo'shimcha preparatlar va ular umumiy xarajatning 22 foizini tashkil etdi. N (Non-essential) turkumidagi vositalarga vitaminlar, mikroyelementlar va yordamchi preparatlar kirgan bo'lib, ularning ulushi 6 foizni tashkil etdi.

## 1-jadval

**Xorazm viloyatida 2019 yilda tadqiqot olib borilayotgan byudjet tibbiyot-profilaktika muassasalari uchun xarid qilingan dori vositalari ABC/VEN usulida tahlil**

| Guruhlar | Har bir kategoriyadagi dori vositalarining ulushi<br>(foizlarda) |    |      | Jami |
|----------|------------------------------------------------------------------|----|------|------|
|          | V                                                                | E  | N    |      |
| A        | 69                                                               | 21 | 10   | 100  |
| B        | 42,5                                                             | 21 | 36,5 | 100  |
| C        | 23                                                               | 42 | 36   | 100  |

2-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, dori vositalarini moliyalashtirishda davlat mablag'lari ulushi juda past (o'rtacha 11 foiz), xarajatlarning asosiy qismi esa bemorlar zimmasiga tushmoqda (89 foiz). Bu nisbat sog'liqni saqlash tizimida bir qator muammolarni yuzaga keltiradi: moliyaviy yukning notekis taqsimlanishi – aholining turli qatlamlari uchun dori-darmon xarajatlarini qoplash imkoniyatlari bir xil emas. Davlat mablag'lari yetarli darajada ajratilmagani – dori vositalariga kirish imkoniyatini cheklaydi va ijtimoiy adolat tamoyiliga zid holatni yuzaga keltiradi. Bemorlar hissasining yuqoriligi – aholining iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, dori-darmon ta'minotida uzilishlar xavfini oshiradi. Umuman olganda, dori vositalarini moliyalashtirishda davlat hissasini oshirish va bemorlar zimmasidagi moliyaviy yukni kamaytirish zarur. Bu sog'liqni saqlash tizimida barqarorlikni ta'minlash, aholining dori vositalariga teng kirish imkoniyatini kengaytirish va ijtimoiy himoya darajasini oshirish uchun muhim shart hisoblanadi.

## 2-jadval

**Dori vositalari xarajatlari va moliyalashtirish manbalari**

| Muassasa      | Jami xarajat (so'm) | "Dori-darmon"<br>hissasi (so'm, foiz) | Bemorlar hissasi<br>(so'm, foiz) |
|---------------|---------------------|---------------------------------------|----------------------------------|
| VKTTM         | 46 852 357,3        | 6 126 406,5 (13 %)                    | 40 725 950,8 (87 %)              |
| Yangibozor TB | 13 984 090,0        | 638 089,0 (5 %)                       | 13 345 911,0 (95 %)              |
| Xonqa TB      | 11 756 249,65       | 1 414 029,65 (12 %)                   | 10 342 220,0 (88 %)              |
| <b>Jami</b>   | <b>72 592 696,0</b> | <b>8 178 525,15 (11%)</b>             | <b>64 414 170,85 (89%)</b>       |

### Xulosa:

1. Xorazm viloyati ayrim statsionarlarida surunkali piyelonefritni davolashda qo'llanilgan antibakterial vositalarning katta qismi bemorlarning shaxsiy mablag'lari hisobidan xarid qilingan



# URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

bo‘lib, bu shifoxonalarda dori ta‘minotining yetishmovchiliklarini ko‘rsatibgina qolmay, antimikrob chidamlilikni nazorat qilish va infeksiyalarni samarali davolashda tizimli choralar zarurligini ham ta‘kidlaydi.

2. ABC/VEN tahlil natijalari surunkali piyelonefritni davolashda ishlatiladigan antibakterial vositalarni tanlash va ulardan foydalanish jarayonini optimallashtirish zarurligini ko‘rsatgan holda, ular resurslarni rasional taqsimlashda, chidamlilikni kamaytirishda va yuqumli kasalliklarni davolashda farmakoekonomik samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

## Adabiyotlar

1. Axmedova N., Ismoilov S. XORAZM VKTTMDA CURUNKALI PIYELONEFRITNI DAVOLASHDA QO‘LLANILGAN DORI VOSITALARINING FAMAEOEKOONOMIK TAHLILI //SOUTH ARAL SEA MEDICAL JOURNAL. – 2025. – T. 1. – №. 4. – S. 708-713.
2. Ахмедова Н.М., Исмоилов С.Р. Фармакоэпидемиологический анализ антибактериальных препаратов, применяемых у пациентов, получающих лечение по поводу хронического пиелонефрита в Янгибозорском районном медицинском объединении, Хорезмская область // Инфекция, иммунитет и фармакология. № 5, 2024, 5 (5/2024. Часть – 2), с. 21–26.
3. Ахмедова Н.М., Исмоилов С.Р. Фармакоэпидемиологический анализ антибактериальных средств, применявшихся у пациентов с хроническим пиелонефритом в некоторых стационарах Хорезмской области. // Инфекция, иммунитет и фармакология. № 3, 2025, 5, с. 37–45.
4. Бекчанова Ю.Х., Ахмедова Н.М. Фармакоэпидемиология гепатопротекторов, используемых в больницах Хорезмской области // Научный фокус. – 2024. – Т. 3. – № 7. – с. 89–95.
5. Bekchanova Yu.X., Karimova D.Sh. Xorazm viloyatining tibbiyot muassasala-rida qo‘llanilgan gyepatoprotyektorlarning famakoekonomik tahlili
6. Иванов В.В., Саганов В.П. Фармакоэкономическая эффективность фитотерапии в комплексном лечении пиелонефрита //Acta Biomedica Scientifica. – 2015. – № 2. – С. 12-14.
7. Николаевна-Величковска Л. Н., Солёнова Е. А., Белькин Ю. А. Фармакоэкономическая эффективность ликопида в лечении хронического пиелонефрита //Бюллетень Национального научно-исследовательского института общественного здоровья имени НА Семашко. – 2017. – №. 2. – С. 33-36.
8. Рех МА и др. Эмпирическое назначение антимикробных препаратов при пиелонефрите у пациентов, выписанных из 15 отделений неотложной помощи США: возможность для улучшения // Журнал антимикробной химиотерапии. – 2024. – Т. 79. – № 5. – С. 1038-1044.
9. “SURUNKALI PIYELONEFRIT” NOZOLOGIYASI BO‘YICHA MILLIY KLINIK BAYONNOMA. Toshkent 2024 y.
10. Mohammed SA, Workneh BD. “Critical Analysis of Pharmacyeuticals Inventory Management Using the ABC–VEN Matrix.” Integrated Pharmacy Research and Practicye. 2020;9:113–125.
11. 5-year inventory management of drug products using ABC–VEN analysis. Pharmacia Journal, 2022.
12. Akhmedova N.M., Ismoilov S.R., Bekchanova Y.K. American Journal of Medicine and Medical Sciencyes. – 2025. – Vol. 15, No. 6. – P. 1772–1775. – DOI: 10.5923/j.ajmms.20251506.28